

**Navoiy viloyatida oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari statistikasi
(2019/2020 o'quv yili boshiga)**



2019- yilning 1- noyabriga Navoiy viloyatida 2 ta oliy ta'lim muassasalari: Navoiy Davlat Pedagogika instituti va Navoiy Davlat Konchilik instituti faoliyat yuritmoqda.




Oliy ta'lifm bosqichining asosiy ko'rsatkichlari (2019/2020 o'quv yili boshiga)

Bakalavriat – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lifm muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oily ta'lifmdir.


2019/2020 o'quv yilida oliy ta'lifm muassasalari bakalavriatiga talabalar qabuli

2019/2020 o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga jami 3 582 nafar, shu jumladan 943 nafari davlat grantlari asosida, 2 639 nafar yoshlar esa shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan. Qabul qilingan talabalardan 67,6 foizni (2 423 kishi) qizlar tashkil etadi.

2019/2020 o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga qabul qilingan talabalarning 2 582 nafari kunduzgi, 1 000 nafari sirtqi bo'limlarga qabul qilingan.




Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan jami talabalar, kishi (2019/2020 o'quv yili boshiga)



Oliy ta'lif muassasalaridagi bakalavriat bosqichi talabalarining umumiyligi 13 360 nafarni tashkil etgan, ulardan 8065 nafarni (60,4 %) qizlar tashkil etgan. Bakalavriat bosqichi talabalarining umumiyligi sonidan, kunduzgi bo'limda 10 631 nafar, sirtqi bo'limda esa 2 729 nafar talabalar ta'lif olmoqda. Bakalavr bosqichida davlat granti asosida tehsil olayotgan talabalar 3 286 nafarni tashkil etadi.

2019- yilda oliy ta'lif muassasalarining bakalavriyat bosqichi bitiruvchilari




2019- yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 2 292 nafarni tashkil etib, ularning 777 nafari (33,9 %) davlat grantlari asosida, 1 515 nafari (66,1 %) esa to'lov shartnoma asosida ta'lif olgan. 2019- yilda bakalavriyat bosqichini bitirganlarning 1 297 nafarini (56,6 %) qizlar tashkil etadi. 2020- yilda kutilayotgan bitiruvchilar soni 3 023 nafar bo'lib, ularidan 767 nafari (25,4 %) – davlat grantlari asosida o'qiyotgan talabalardir.

Oliy ta'lif magistratura bosqichining asosiy ko'rsatkichlari (2019/2020 o'quv yili boshiga)

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lif muddati kamida ikki yil davom etadigan oily ta'lifdir.

Oliy ta'lif muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2019/2020 o'quv yili uchun magistraturaga jami 155 nafar qabul qilingan talabalardan, 47,7 foizi (74 kishi) davlat granti asosida, 52,3 foizi (81 kishi) to'lov shartnoma asosida qabul qilindi.




Magistratura bosqichi talabalarining o'qiydigan kurslari bo'yicha taqsimlanishi, kishi

	1- kurs	2- kurs
2018/2019 o'quv yili boshiga	92	82
2019/2020 o'quv yili boshiga	155	121

Magistratura bosqichida ta'lif olayotgan jami talabalar soni 276 nafarni tashkil etib, ulardan 107 nafari davlat grantlari asosida, 169 nafari shartnoma asosida ta'lif olmoqda. Jami talabalarning 54,3 foizini (150 nafar) qizlar tashkil etgan.

Oliy ta'lif muassasalarining magistratura bosqichi bitiruvchilari




2019- yilda oliy ta'lif muassasalari magistratura bosqichining 82 nafar bitiruvchilaridan, 35 nafari davlat grantlari asosida o'qigan. 2019- yilda magistratura bosqichini bitirganlarning 37 nafarini qizlar tashkil etadi.

Navoiy viloyatida oliy ta'limning asosiy ko'rsatkichlari

	Oliy ta'lim muassasalari soni, <i>birlik</i>	Talabalar soni, <i>kishi</i>	Qabul qilinganlar soni, <i>kishi</i>	Oliy ta'lim muassasalarini bitirgan talabalar soni, <i>kishi</i>	Professor o'qituvchilar soni, <i>kishi</i>
2018- y.	2	11 641	3 450	2 300	674
2019- y.	2	13 636	3 737	2 374	716


2019/2020 o'quv yili boshiga oily ta'lim muassasalarida 13 636 nafar talaba ta'lim olmoqda. Davlat grantlari asosida 3 393 nafar (24,9 %), to'lov shartnoma asosida esa 10 243 nafar (75,1 %) talabalar tahsil olmoqda. Jami talabalar sonidan kunduzgi bo'limda 10 907 nafar, sirtqi bo'limda esa 2 729 nafar talabalar tahsil olmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi




2019/2020 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalaridagi jami talabalardan 60,2 foizini (8 215 nafar) qizlar tashkil etadi. Ulardan 6 392 nafari kunduzgi bo'limda, 1 823 nafari esa sirtqi bo'limda tahsil oladi.

Oliy ta'lif muassasalariga qabul qilingan talabalar soni, kishi



2019/2020 o'quv yili boshiga oily ta'lif muassasalariga jami 3 737 nafar yoshlar talabalikka qabul qilingan, ulardan 2 315 nafari qizlar. Davlat granti asosida 1 017 nafar (27,2 %), to'lov shartnoma asosida 2 720 nafar (72,8 %) talaba qabul qilingan. Qabul qilingan talabalardan 2 737 kishi kunduzgi bo'limga, 1 000 kishi sirtqi bo'limga o'qishga qabul qilingan.

Oliy ta'lif muassasalarida bitiruvchilar soni




2019- yilda oily ta'lif muassasalari bitiruvchilari soni 2 374 nafarni tashkil etib, ulardan 2 292 nafari bakalavr bosqichini, 82 nafari talaba esa magistratura bosqichini bitirgan. 2019- yilda oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarning 1 334 nafari yoki 56,2 foizini qizlar tashkil etadi. Shuningdek bitiruvchilarning 812 nafari (34,2 %) davlat grantlari asosida, 1 562 nafari (65,8 %) to'lov shartnoma asosida ta'lif olib, bakalavr hamda magistr darajasiga ega bo'ldi.

Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan jami talabalarning yoshi bo'yicha taqsimlanishi, kishi

	Jami	17 yosh va undan kichik	18 yosh	19 yosh	20 yosh	21 yosh	22 yosh	23 yosh	24 yosh	25 yosh va undan katta
2019/2020 o'quv yili boshiga	13 636	477	1 031	1 376	1 906	1 722	1 857	1 188	883	3 196


Oliy ta'lif muassasalaridagi talabalarning 2020- yil 1- yanvar holatiga to'ladigan yoshi bo'yicha taqsimlanganda, 17 yosh va undan kichik bo'lgan talabalar 3,5 foizni, 18 yosh bo'lgan talabalar 7,6 foizni, 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan talabalar 65,5 foizni, 25 yosh va undan katta yoshdagi talabalar 23,4 foizni tashkil etadi.

O'qiydigan kurslari bo'yicha talabalar soni, kishi



Oliy ta'lif muassasalaridagi talabalarining umumiy soni 13 636 nafarni tashkil etib, ulardan 1- kursda 3 737 nafar, 2- kursda 3 951 nafar, 3- kursda 3 551 nafar, 4- kursda 2 397 nafar talabalar tahsil olmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalarning o'qitish tillari bo'yicha taqsimlanishi



Oliy ta'lim muassasalaridagi jami talabarni ta'lim olib boriladigan tillari bo'yicha taqsimlanganda, o'zbek tilida 82 foiz, rus tilida 15,6 foiz, qozoq tilida 2,2 foiz va qaraqalpoq tilida ta'lim berilayotgan talabalarning ulushi 0,2 foizni tashkil etadi.

Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini tarkibi

2019/2020 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida 716 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo'lib, ulardan 44,7 % (320 nafar) ayol o'qituvchilar tashkil etadi.

Fan doktor ilmiy darajaga ega bo'lganlari 15 nafarni, fan nomzodlari 124 nafarni hamda falsafa doktorlari 19 nafarni tashkil etmoqda.

Shuningdek ilmiy unvoni bo'yicha professorlar 10 nafarni, dotsentlar 99 nafarni tashkil etadi.

